



ТИЛ ХЭМ ӘДЕБИЯТ

САЁХАТНОМА – ТРЭВЕЛ ЖУРНАЛИСТИКАНИНГ АСОСИ СИФАТИДА

Фуломова Н.Р.

*Ўзбекистон журналистика ва оммавий
коммуникациялар университети 2-босқич магистри*

Tayanch soʻzlar: jurnalistika, ixtisoslashuv, trevel-jurnalistika, janr, sayyohlik turlari, sayohatnoma, ocherk, hikoya, mass-media, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Ключевые слова: журналистика, специализация, туристическая журналистика, жанр, виды туризма, путевой очерк, очерк, рассказ, средства массовой информации, информационно-коммуникативные технологии.

Key words: journalism, specialization, tourism journalism, genre, types of tourism, travel literature, essay, story, mass media, IT.

Bugungi kunda turizmni tassurotlar, bilimlar, his-tuygʻular, istaklar va tilaklar manbasi boʻlgan zamonaviy mass-mediasiz tasavvur etib boʻlmaydi. Ushbu sohaning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishi ham jurnalistlarning asosiy eʻtibor predmetiga aylandi va ixtisoslashgan jurnalistika – trevel jurnalistika shakllandi.

Trevel jurnalistika keng jamoatchilikda sayyohat toʻgʻrisida tasavvur hosil qilish, geografik joylashuvi, milliy urf-odatlar va jahon xalqlarining turlicha mentaliteti, mamlakatlar va shaharlarning tarixi, madaniyati haqida eng muhim maʼlumotlarni beradi [5,70].

Tadqiqotchilar va sayohatchilar trevel jurnalistikaga turlicha taʼrif beradi. Jumladan, S.N.Ilchenkoning taʼkidlashicha, trevel jurnalistika (ingl. travel journalism) – mass mediadagi alohida yoʻnalish boʻlib, unda asosiy eʻtibor turli sayohatlar davomida toʻplangan maʼlumotlarga qaratiladi [2]. Trevel jurnalist M.Jelixovskaya sayohat jurnalistikasini tarix, sanʼat, astronomiya, etnografiya va boshqa jihatlarni uygʻunlashtirgan “keng qamrovli mutaxassislik”, - deb nomlashni taklif qiladi.

M.A.Panikovskayaning taʼkidlashicha, trevel jurnalistika yoʻnalish sifatida Qadimgi Rusda paydo boʻldi va shakllandi. Trevel jurnalistikada

jurnalistik ijodkorlik uchun keng imkoniyatlar mavjud bo‘lib, ushbu yo‘nalish teleprodyusserlar, hujjatli film va kino sohasi mutaxassislarini qiziqtirib keladi. Ushbu yo‘nalishga talabning ortib borayotganligi, birinchidan, turizm biznesining tez rivojlanib borayotganligi, ikkinchidan, biror mamlakat haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish yoki jalb qiluvchi axborotga bo‘lgan ehtiyojning ortayotganligi bilan belgilanadi.

Trevel jurnalistika mamlakatlarning moddiy va ma‘naviy hayoti, o‘lka tarixi va madaniyati, urf-odatlar va marosimlari haqida to‘liq tasavvur hosil qilish imkonni beradi. Odamlarga boshqa mamlakatlar tarixi, madaniyati, iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti haqida ma‘lumot beradi. Shu boisdan ham zamonaviy mass media bozorida trevel-jurnalistikaga ehtiyoj o‘sib bormoqda. Sayyohlik turizmi mediasi zamonaviy auditoriya talablari asosida rivojlanmoqda. Gazeta, jurnal, televideniye, internet, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa media tarmoqlar turizm sohasida yangi bosqichga chiqmoqda.

Trevel jurnalistikaning ilmiy-nazariy asoslari respublikamizning yetakchi olimlari, MDH davlatlari, shuningdek, xorijlik tadqiqotchilar tomonidan chuqur o‘rganilmoqda. Jumladan, Munira Isomiddinova tomonidan trevel jurnalistikasi tushunchasi va shakllanish bosqichlari, trevel jurnalistikaning asosi sifati sayohatnoma janri va bu masalada dunyo tajribasi o‘rganilgan

Tadqiqotchi Sh.Askeraliyevaning ilmiy xulosalarida sayohat jurnalistikasi endi sayohat yozuvi haqidagi tarixiy tushunchadan ancha uzoq ekanligi, hozirgi kunda bu ommaviy axborot vositalarida sayohat haqida so‘z yuritadigan, mavzuni geografiya, madaniyat, tarix, turizmning o‘ziga xos xususiyatlari, din va boshqa jamoatchilikni qiziqtiradigan jihatlar orqali ochib beradigan alohida-alohida qatlam ekanligi ta‘kidlanadi.

E.Konopleva tadqiqotida esa trevel jurnalistika asoslari televideniya ommabop bo‘lgan tele-ko‘rsatuv tahlili misolida ochib berilgan [5]. N.V.Krivsov bu yo‘nalish juda kam o‘rganilgan bo‘lib, dastlabki tushunchalardan to asosiy tamoyillargacha chuqur o‘rganilishi talab etilishini ta‘kildaydi [6].

Shu o‘rinda trevel jurnalistikasining paydo bo‘lishi, uning rivoji hamda bu boradagi ustuvor vazifalarga e‘tiborni qaratsak. Ma‘lumotlarga ko‘ra, bir necha yuz yillar oldin odamlarda tevarak-atrof haqidagi ma‘lumotlarni bilishga, balki, yangi mamlakatlar, xalqlarni kashf etish, ular bilan hamkorlik qilish, tashqi siyosiy faoliyatiga kirishga qiziqish paydo bo‘lgan. Trevel jurnalistikaning tarixiy aspektlari qadimgi yozma va bosma manbalarda saqlanib qolgan. Sayohatchilarning yozma manbalari, taassurotlari bitilgan matnlar, o‘zaro yozishmalarini trevel-jurnalistikasining poydevori, dastlabki og‘zaki va yozma manbasi deyish mumkin.



Mashhur arab sayyohi Ibn Battutaning “Sayohatnoma” asari oʻrta asr mamlakatlari, shaharlari, ularning xalqlari madaniyati, turmush tarziga oid gʻoyat qimmatli, koʻp oʻrinlarda yagona maʼlumotlari bilan boshqalardan ajralib turadigan tengi yoʻq asar sifatida eʼtirof etiladi.

Zero, sayohatnomalar orqali jamiyat tarixi yaratiladi, podshohlarning boshqaruv usuli, siyosati, uning mohiyatini ochib beradi [15,131].

Filolog olim B.Alimovning xulosalariga koʻra, kishilik sivilizatsiyasining qaysi bosqichiga qaramang, maʼlum bir zamin va zamonda yashagan xalqning kundalik turmush tarzi, tevarak-atrofdagi oʻzgarishlarni, yangiliklarni, qolaversa, orzu-umidlarini batafsil ifodalashga, aniq maʼnoni anglatuvchi rasmlar, bitiklar, yozuvlar qoldirishga har doim ehtiyoj boʻlgan. Birinchi va Ikkinchi Renessans davridan boshlab taʼlim turizmi shakllanganligi bizga tarixdan maʼlum. Odamlar ilm izlab individul yoki guruh-guruh boʻlib shahardan-shaharga koʻchib oʻtganlar. Ilmiy tadqiqotlar natijasi shuni koʻrsatadiki, trevel jurnalistikasining paydo boʻlishi va koʻxna ildizlari kishilik jamiyatining dastlabki taraqqiyot bosqichiga toʻgʻri keladi [2].

Sharqning buyuk mutafakkiri va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida shunday yozadi: “Adiblardan bir mendan (turli) xalqlar haqidagi tarixlar, ularning boshlanishlari va shaxobchalari, yaʼni oylar va yillari ustida u tarix egalarining ixtiloflari va bu ixtiloflar sabablari, mashhur bayramlar, turli vaqtlar va (har xil) yumushlar uchun belgilangan kunlar, millatlarning baʼzisi amal qilib, baʼzisi amal qilmaydigan boshqa (marosimlar) haqida soʻradi va meni imkon boricha ularni juda ravshan bayon etib, oʻquvchi fahmlaydigan, (turli) kitoblarni axtarish va u kitob egalarini surishtirishga ehtiyoj qoldirmaydigan (bir asar yozishga) daʼvat etdi. ... (butun) kuchimni yigʻib, (bor) imkoniyatni ishga solib, goh eshitish, goh koʻrish va qiyos qilish orqali, bilimim yetganicha, u narsalarni bayon etishga bel bogʻladim” [1,40].

Shuningdek, Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asari haqida fikr bildirgan olimlar: Hindiston haqida haligacha hindlarning oʻzlari ham shunday batafsil va ilmiy jihatdan qimmatli asar yaratmagan, - deb taʼkidlaydi. Beruniy Hindiston haqida asar yozar ekan, hindlar hayoti, urf-odati, ayniqsa, eʼtiqodiga oid diniy kitoblar bilan batafsil tanishadi. Buyuk olim faqat hind kitoblari bilan qanoatlanmay, balki qadimgi yunon, rim adiblari asarlaridan ham keng foydalandi.

Yoki buyuk Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning (1483–1530) “Boburnoma” asari ham Oʻrta Osiyo, Afgʻoniston, Pokiston, Hindiston va Eronning tarixi, geografiyasi, topografiyasiga oid qimmatli maʼlumotlar

keltirilganligi bilan qomusiy manba hisoblanadi. Asarda adabiyotshunoslik, tilshunoslik, etnografiya, pedagogika va boshqa fan sohalariga doir juda qimmatli fakt va ma'lumotlar berilgan. "Boburnoma" XV asr oxiri XVI asrning birinchi yarmidagi Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron xalqlari tarixini o'zida aks ettirgan bo'lsa-da, o'sha davrdagi juda ko'p dolzarb iqtisodiy, ijtimoiy masalalar, hududlarning o'zaro siyosiy-iqtisodiy va savdo munosabatlari, jug'rofiy mavqei, iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi, tog'lari, daryolari, xalqlari, qabila va elatlari va ularning yashash sharoitlari, urf-odatlarini, muhim tarixiy inshootlari, shuningdek, hindu va musulmonlarning ibodatxonalari, to'y va dafn marosimlari haqida nihoyatda nodir ma'lumotlarni o'zida qamrab olgan asardir [2].

XX asr oxirlariga kelib sayohatnoma asrlari yaratila boshlangan bo'lib, Muqimiyning "Sayohatnoma" asarlarida joylarning toponimik nomlari, etnografiyasi, geografiyasi, odamlarning asosiy mehnat faoliyati, joylarning tabiati va o'ziga xos jihatlari batafsil yoritilganligi bilan haligacha sayyohlik jurnalistikasining ilk ko'rinishlari sifatida qadrlanadi:

"Vodil" maqomi dilkusho,

Ko'chalaridir dilkusho,

Anhorida obi safo,

Sebarga, obishor ekan. [9,429]

Shuningdek, Furqat, Zavqiy, Tajalliy kabi zabardast shiorlar Muqimiy asarining vazni va radifi bilan sayohatnomalar yozganlar. Zavqiy sayohatnomasi "Obid mingboshi haqida hajv" nomi bilan tanilgan, Tajalliy "Sayohatnoma" sidan parchalargina yetib ketgan [7,70].

Jadid namoyanlaridan Ishoqxon Ibrat 25 yoshida safarga chiqadi. "Ishoqxonning Sharq mamlakatlari safariga chiqishdan asosiy maqsadi, birinchidan, onasining hajga olib borish haqidagi iltimosini qondirish bo'lsa, ikkinchidan, chet el halqlari hayoti, madaniyati bilan yaqindan tanishish, bu mamlakatlarni o'z ko'zi bilan ko'rish istagi edi: "...Umrim naqdini havas bozorida kechirmak taqozosila o'lub, sinnim yigirma besh kechmish ekan, havo'i taqozoi muhtarama dushub sayohat etdum..." – deb yozadi u [7,110].

Sayohatnoma janri sayyohlarning yo'l xotiralari va bitiklari ta'siri ostida shakllandi. Sayyohlarning yo'l xotiralari asosida yuzaga kelgan afsona va rivoyatlar bu janr taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi.

XV-XVI asrlar geografik kashfiyotlar davridagi safarlarning g'oyat qiziqarli tafsilotlari, XVII-XVIII asrlardagi ekspeditsiyalar sayohatnoma janrini ommalashtirib yubordi va ushbu janrda ko'plab asarlar yaratildi. Sayohat eslatmalari va insholar endi nafaqat geografik bilimlarni uzatish vositasi,



balki mahalliy an'analar va etnografik voqelikni aks ettiruvchi mamlakatlar va sayohat-ziyorat joylari madaniyatini ommalashtiruvchi vositadir (Marko Poloning «Dunyo xilma-xilligi kitobi» (1299)), Petrarkaning Mont Ventuga yurish haqidagi hikoyasi (1336), mashhur marokashlik sayyoh Ibn Battutaning (1304–1377) eslatmalari [12,18] shular jumlasidandir. Tarixda yangi manzillarning ochilishiga doir Robinzon Kruzo, Gulliverning sarguzashtlari, Xristofor Kolumb sayohatlari haqidagi yozma manbalar muhim ahamiyatga ega bo'lganligi alohida ta'kidlanadi.

Keyinchalik safar va sayohatlar natijasida publitsistika yo'li ocherki degan alohida janr shakllandi. Yo'li ocherklarida sayyohning safar qilgan mamlakatlarida ko'rgan-kuzatganlari, his-hayajonlari, ruhiy kechinmalari, sarguzashtlari, hayotiy xulosalari ifodalanadi. Badiiy publitsistika jurnalistik ijod mahoratining muhim yo'nalishi hisoblanadi. XVIII asrga kelib (1760 yildan) sayohatlar haqidagi ocherklar jurnallarda berila boshladi.

XIX asrga kelib sayohat kundaligi sayohat natijasi emas, balki uning maqsadiga aylandi. Sayohatchilar davriy nashrlar uchun o'zlarining ocherklarini yarata boshladilar. Bosma nashrlarda mashhur sayohlarning yo'li ocherklari nashr qilina boshlandi. Yo'li ocherki janri telefon, telegraf, fotoapparatlarning ommalashuvi bilan yangi bosqichga ko'tarildi [11,7]. Bugungi axborot asriga kelib yo'li ocherklarini yaratish imkoniyatlari yanada kengaydi. Yo'li ocherklarini Jahon Internet tarmoqlariga joylashtirish, foto va video materiallar joylashtirish, selfi qoldirish orqali o'quvchilarga sayohat manzillarini aynan ko'rsatish imkoniyatlari yaratildi. Shu bois, trevel jurnalistika jurnalistikaning alohida turi sifatida PR-faoliyatining elementi va reklamasi sifatida shakllandi va uzoq vaqt sayohat jurnalistikasi deb nomlanib keldi. Mazkur jarayonda OAVlarining alohida mavzuni yoritishga mo'ljallangan maxsus mediadan to oddiy qiziqishlarni yoritishga mo'ljallangan tip va janrlari shakllandi. Yo'li ocherklari, reportaj, tavsiya, eslatma, hikoyalar, trevel-fotosurat janri kabilar shular jumlasidadir.

L.A.Trotsenkoning fikricha trevel-jurnalistikaning turlicha matnlari mavjud: axborot-yangilik matni, ko'rsatma matni, masofaviy matn, sarguzashtli matn [13,231].

Amaliyotda ushbu janrlarni alohida uchratish qiyin. Janrlar bir-birini to'ldirgan holda sayyohlik obektlari haqida to'liq tasavvur qilish imkonini beradi. Masalan jurnalist yo'li ocherklariga tabiat manzaralarini uyg'unlashtiradi, geografik xaritalar yoki fotolavhalar bilan boyitiladi, infografika bilan to'ldiriladi. Bugungi kunda sayohat jurnalistikasi mass-mediada istiqbolli yo'nalish bo'lib, mavzular ko'lami kengayib bormoqda.

Taniqli trevel jurnalist Nargiza Qurbonning “Yo‘ldaman” deb nomlangan ocherkida [10,304] AQSH, Xitoy, Peterburg, Turkiya, Hindistonga sayohatlari bayon etilgan bo‘lib, safar taassurotlari, yo‘ldagi voqealar, mamlakatlar va odamlar hayoti chuqur yoritiladi, muammolar tahlil qilinadi. AQShga sayohat “O‘rta Osiyo va Amerika hamkorlik tashkiloti” tomonidan ishlab chiqilgan loyiha doirasida tashkil etilgan bo‘lib, o‘quvchini ushbu loyihadan ko‘zlangan maqsad bilan yaqinlan tanishtiradi. Kolumbiya, Nordistern, Garvard universitetlarida jurnalistika sohasi chuqur o‘rgatilishi hamda dunyoga mashhur professorlar dars berishi haqida ma’lumotlar beradi. Jurnalistlarni tayyorlashda nazariy bilimlardan ko‘ra ko‘proq e’tibor amaliy mashg‘ulotlarga qaratilishi, asosiy maqsad yaxshi reportyorlarni tayyorlashga qaratilishi soha mutaxassislari uchun albbata muhim ma’lumot.

Amerikaliklarning uylari tomiga ham bayroq ilinganligi va jurnalistning buning sababini so‘raganda: “Bu shunchaki amerikaliklarning o‘z mamlakatlariga bo‘lgan muhabbati belgisi, xolos”, - deya bergan javobi shu ondayoq insonda o‘z Vatani bayrog‘idan g‘ururlanish hissini tuyishiga undaydi, o‘quvchining qalblari iftixor paydo bo‘ladi. Amerikaning ko‘chalari, savdo shahobchalari, ko‘kka bo‘y cho‘zgan haykallari, turli millat vakillari yashaydigan shaharchalari, u yerda yashaydigan odamlar hayoti o‘z ifodasini topadi.

AQShdagi eng yirik telekompaniya faoliyati, axborot tezligi, voqealar, hodisalarning tezkorlik bilan uzatilishi, axborotlarni faqat eng to‘g‘ri va ishonchli manbalarga tayangan holda berilishida kompaniyaning mas’uliyati va jamiyatning ogohlighi alohida ko‘rsatib o‘tilaladi. Bosma nashrlarda ko‘tarilayotgan masalalar jamiyat hayotining aks-sadosi sifatida o‘z ifodasini topishi e’tiborni tortadi. Muallif Xitoy, Peterburg, Turkiya, Hindistonda ko‘rgan voqea-hodisalarni, xalqlarning madaniyati, aholisining turmush tarzi, urf-odatlarini, milliy bayramlari haqida ma’lumot beribgina qolmay, balki voqealarni hissiyotlar bilan to‘ldiradi, badiiy tashbeh bilan ifoda etadi.

Mazkur ocherk insonning qalbiga sayohat hissini olib kiradi, dunyo kezishga, sayohat qilishga undaydi, yangi-yangi maqsadlar sari rag‘batlantiradi. “Yo‘ldaman” ocherki yengil o‘qilishi, tabiiy va samimiy bildirgan fikrlari bilan inson qalbiga kirib boradi, o‘quvchi o‘zini jurnalist bilan birga sayohat qilayotgandek his qiladi.

Ular yurgan yo‘llarni, shaharlarni, muzeylar, kutubxonalar va muqaddas qadamjolarini ko‘rib turadi, qahramonlar bilan gaplashadi, ularning qiyofalarini aniq tasavvur qiladi. Katta-kichik detallar jurnalistning e’tiboridan chetda



qolmaydi. E'tibor qaratilishi zarur bo'lgan masalalarda shaxsiy tajribasi bilan o'rtog'lashadi.

Shu bilan birga muallif Xindiston safari haqida yozar ekan “Xorijda davolanish – chorasizlikka chorami?”, “Tibbiy sayyohlik zamonaviy biznesi yoki....” – degan savollar bilan o'quvchini mushohadaga ham chorlaydi. “Safar – sarguzasht bilan maroqli, zavqli. Bu kunlarni hali yuzda tabassum bilan eslaymiz”, - deya safarni taassurotlarini xulosalaydi. Ocherkda mavzular ko'lami keng bo'lib, o'quvchi sayohatdan o'zini qizqtirgan narsalarni izlaydi va uni topadi. “Yo'ldaman” ochekrining muvaffaqiyati ham shunda.

Xulosa o'rnida trevel jurnalistika xalqlar madaniyati, urf-odatlarini, turmush tarzi haqidagi bilim va taassurotlarni kengaytirishga xizmat qilishi, madaniyatlar almashinuvi va sivilizatsiyalar rivojiga munosib hissa qo'shishi bilan xarakterlanadi.

Adabiyotlar:

1. Абу Райхон Беруний. Асарлар. /Таржимон А.Расулов. Изохларни И.Абдуллаев ва А.Расулов тузган. Мас'ул муҳаррирлар: И.Абдуллаев ва О.Файзуллаев/. Т.Т. Фан, 1968. – Б. – 40.
2. Алимов Б. Жаҳон тревел журналистикасининг қўхна илдизлари //https://yuz.uz/news/jahon-trevel-jurnalistikasiningkohna-ildizlari. 2023. 21 июль.
3. Ильченко С.Н. Современная тревел-журналистика. – Москва: Берлин: Директ-Медиа, 2020. – 344 с.
4. Ихтисослашган журналистика IX жилд. – Тошкент. O'zbekiston, 2019. - 784 б.
5. Копорлева Е.У. Игровые концепции телепередачи “Орёл и Решка” - Санкт-Петербург. 2017. – 70 с.
6. Кривцов Н. В. Тревел-журналистика: специфика направления и его проблемы / Н. В. Кривцов // Вопросы теории и практики журналистики. — 2017. - Т. 6, № 3. - С. 347–365.
7. Миллий уйғониш даври адабиёти. – Тошкент, Маънавият, 2004. – Б. 70-б.
8. Муха А.В., Федосеева Н.И. Содержательная и жанровая специфика тревел-журналистики в зависимости от видов СМИ. URL: https://tourlib.net/statti_tourism/muha.htm
9. Муқимий. Асарлар. – Тошкент, Ғофур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1974. – Б. 429
10. Nargiza Qurbon. Yo'ldaman. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Afzalzoda books, 2023. – 304 b.
11. Радчук Н.В. Современная журнальная тревел-периодика в России (на примере журналов “Вокруг света” и “ГЕО”). – Краснодар, 2018. – С.7.
12. Ревенко, А.А. Предпосылки возникновения и этапы становления печатных изданий о путешествиях / А. А. Ревенко. Вестн. НГУ. Серия: История, филология. 2016. – Т.15, №6. – С. 7–18.
13. Троценко Л.А. Типологические и формально-содержательные особенности программ о путешествиях на российском телевидении // Ученые заметки ТОГУ. - 2017. Т. 8. - № 1. - С. 231.
14. Хаджаев А., Ҳайитов Ш. Радио ва телевидение. Ўқув-услубий қўлланма. Ijod-press, 2022. – Б. 97.
15. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2006. - Б. 131.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada jurnalistik ixtisoslashuv, mass medianing alohida yo'nalishi bo'lgan trevel jurnalistikasi, uning shakllanish bosqichlari, trevel jurnalistikaning asosi sifati sayohatnoma janri va dunyo tajribasi, globallashuv va texnika asriga kelib trevel jurnalistikasining zamonaviy axborot-



kommunikatsiya texnologiyalari yordamida rivojlanishi, trevel-jurnalistikaning mass-mediada istiqbolli yoʻnalish sifatidagi taraqqiyoti masalalari yoritiladi. Shuningdek, odamlarda sayohatga boʻlgan qiziqishning oshishida trevel jurnalistikaning asosiy janrlaridan biri boʻlgan yoʻl ocherklarining ahamiyati bayon qilinadi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается журналистская специализация, трэвел-журналистика как особое направление средств массовой информации, этапы ее становления, жанр рассказа о путешествиях и мировой опыт как основа трэвел-журналистики, развитие трэвел-журналистики в век глобализации и технологий с помощью современных информационно-коммуникационных технологий, освещаются вопросы развития трэвел журналистики как перспективного направления в средствах массовой информации. Также описывается значение путевых очерков, одного из основных жанров трэвел-журналистики, в повышении интереса людей к путешествиям.

SUMMARY

This article considers journalistic specialization, travel journalism as a special area of the mass media, the stages of its formation, the genre of travel stories and world experience as the basis of travel journalism, the development of travel journalism in the age of globalization and technology with the help of modern information and communication technologies, the development of travel journalism as a promising direction in the mass media. It also describes the importance of travel essays, one of the main genres of travel journalism, in increasing people's interest in travel.